

# TA'LIM KREDITI VA UNING BANK-MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402048>

Xidirova Pokiza Shamsiddinovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklarida ta'lif krediti amaliyotini takomillashtirish yo'llari, ta'lif kreditining bank-moliya tizimidagi o'rni, shuningdek ta'lif krediti amaliyotlarining zaruriyati va afzalliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lif krediti, bank, risk, menejmenti, bank menejmenti

Bizga ma'lumki, rivojlangan va rivojlanib borayotgan ko'pgina davlatlarda iqtisodiyotning yuksalishiga, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali erishilgan. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq iqtisodiyotning g'oyat muhim sohasi bo'lmish, kichik biznesni rag'batlantirishga, xususiy tadbirkorlik huquqlarining kafolatlari va kuchli himoya tizimini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Buning boisi shuki, ijtimoiy yo'naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida kichik biznes muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo, kichik biznes bozor konyukturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishga, iste'molchilarining talab-ehtiyojlari qanday o'zgarishiga qarab ish tuta bilishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muhitini shakllantiradi, yangi ish o'rnlari yaratilishini, aholining bandlik darajasini o'sishini va uning daromadlari oshib borishini ta'minlaydi hamda ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Kichik biznes va tadbirkorlikning banklar, boshqa bozor tuzilmalari va yirik korxonalar bilan kundalik aloqalarini amalda mustahkamlash, ularni haqiqiy sherikchilik munosabatlariga aylantirish lozim"ligini ta'kidlab, bank va moliya muassasalarining bu sohaga yo'naltirilgan faoliyatini isloh qilish lozimligi e'tirof etgan.

Ta'lif kreditlari bu yildan boshlab tijorat banklari tomonidan bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lif shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan yoki tavsiya etilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarga berilishi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lif kreditlari ajratishni

tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining Qarori va “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi hisobidan tijorat banklari orqali oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlarini ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartirishlar kiritish orqali belgilab berildi.

Shuningdek, kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra endilikda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muddati bir yil va undan ortiq bo‘lgan barcha oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida o‘qish uchun ta’lim kreditlari ajratiladi. Ya’ni endilikda davlat, nodavlat oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari, O‘zbekistondagi xorijiy oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallarida o‘qish uchun ham ta’lim kreditidan foydalanish mumkin.

Kredit olish uchun bankda xar bir kredit bo‘yicha alohida kredit hisob varag‘i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiyalashtirilib topshiradi. Kredit komissiyasining qaroriga ko‘ra kredit berish lozim deb topilsa bank va kredit oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kreditning nima maqsadda olinishi, muddati, summasi, qaytarilish tartibi, kredit uchun to‘lovlar, tomonlarning majburiyatlari, javobgarligi, boshqa shartlar ko‘rsatiladi. Kredit bo‘limining farmoyishiga ko‘ra, hisob operatsion bo‘limida kredit oluvchi korxonaga kredit hisob varag‘i ochiladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mulkchilik shakliga qarab, tegishli balans hisobvarag‘i bo‘yicha kredit hisobvarag‘i ochiladi. Masalan: fermer xo‘jaliklariga kredit berish uchun 13101 balans hisobvarag‘i bo‘yicha kredit hisobvarag‘i ochiladi. Kredit hisobvarag‘i ham 20 ta razryaddan iborat bo‘lib, uning ichida kredit olmokchi bo‘lgan fermer xo‘jaligining xos raqami (unikal kodi) bo‘lishi lozim.

Ta’lim krediti hujjatini imzolagan banklar quyidagilar:

1. Mikrokredit bank;
2. Turon bank;
3. Asaka bank;

4. Orient Finans Bank;
5. Agrobank;
6. Milliy bank;
7. Xalq banki;
8. O'zsanoatqurilishbank;
9. Ipoteka bank;
10. Hamkorbank;
11. Qishloq qurilishbank.

Tijorat banklarida ta'lif kreditlarni hisobga olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgust 773-17-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004 yil 17 iyuldag'i № 578 qarori bilan tasdiqlangan va 17-30-son o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejas"ida keltirilgan hisobvaraqlardan foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha chiqarilgan me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

Ta'lif krediti tizimi yaratilish jarayoni bu O'zbekiston iqtisodiyotida juda muhim rol o'ynay oldi. Bu ta'lif krediti tizimining yaratilishi o'quvchi-yoshlarga quyidagicha imkoniyatlар berdi:

1. O'qishni sharoitga qarab tashkil qilish;
2. Muammolar yechimi;
3. O'qish zaruratini qondirdi;
4. Talabalarga shaxsiy rivojlanish ko'nikmasini berdi;
5. Mustaqil ishlashga ko'mak yaratdi;
6. Mablag'ni to'plab so'ng sarf qilish ijrosini ta'minladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurt iqtisodiyoti barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi ham mehnat bozoridagi kadrlar salohiyatiga bog'liq. Bunday iqtidor egalari yurtimizning har bir go'shasida topiladi. Ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, ko'mak va rag'bat berish, ilm olish huquqini ta'minlash davlatimiz e'tibori markazida. Ana shu oliy maqsad yo'lida

joriy etilgan ta'lif krediti bugun ilm olish istagidagi yoshlar va ularning ota-onalari uchun haqiqiy ko'mak bo'limoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. Science and Education, 3(5), 1637-1645.
4. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 222 b.
5. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
6. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. Science and Education, 4(6), 881–887.
7. Azizov U. Karaliyev T. va boshqalar "Bank ishi" darslik , "Fan va texnologiya". Toshkent - 2016. 68-bet.
8. Inomjon J., Sarvar A. SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING MOLIYAVIY MABLAG 'LARINI SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI //PEDAGOGS jurnalı. – 2023. – Т. 35. – №. 4. – С. 102-108.
9. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
10. I. T. Jumaniyazov 2021. The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 25, 2 (Mar. 2021), 109–116.
11. Jumaniyozov, I. "ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS." International Finance and Accounting 2020.5 (2020): 1.
12. I. T. Jumaniyazov, . "Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds". The American Journal of Management and Economics Innovations, vol. 3, no. 05, May 2021, pp. 30-37.